VII. ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2023- yilning yanvar-iyunida chakana tovar aylanmasi 8 874,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakllari bo'yicha chakana tovar aylanmasi

	mlrd. so'm	*2022- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida*	*yakunga nisbatan foiz hisobida*
Jami	**8 874,4**	**104,5**	**100,0**
shu jumladan mulkchilik shakllari bo'yicha:			
davlat mulki	-	-	-
nodavlat mulki	8 874,4	104,5	100,0
undan fuqarolarning xususiy mulki	6 192,9	109,2	69,8

Savdo korxonalarining chakana savdo aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-iyunida 8 874,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etgan.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikning jami chakana savdo hajmi joriy yilning yanvar-iyun oylarida 4 980,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,1 foizga o'sdi.

2023- yilning yanvar-iyunida chakana savdo aylanmasi tarkibi

	mlrd. so'm	*2022- yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida*	*yakunga nisbatan foiz hisobida*
Chakana tovar aylanmasi	**8 874,4**	**104,5**	**100,0**
shu jumladan:			
savdo korxonalari	2 681,5	94,9	30,2
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	4 980,0	111,1	56,1
shundan: uyushmagan sektor (tashkil etilmagan savdo faoliyati)	1 212,9	102,1	13,7

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi

10,9 mlrd.so‘m

Tuzlamalar

14,2 mlrd.so‘m

Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalarni qo’shgan holda)

28,0 mlrd.so‘m

Zirovarlar

2,3 mlrd.so‘m

Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi)

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1212,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (368,2 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

14,5 mlrd.so‘m

Sut va sut mahsulotlari

12,6 mlrd.so‘m

Tuxum

38,0 mlrd.so‘m

Tovuq go‘shti

5,4 mlrd.so‘m

Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar

93,3 mlrd.so‘m

Non va non mahsulotlari

22,8 mlrd.so‘m

Don mahsulotlari (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar) mahsulotlari

368,2 mlrd.so‘m

Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlama kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **602,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **424,3** mlrd. so‘mni, qo‘y va echkilar **111,3** mlrd. so‘mni, otlar **23,3** mlrd. so‘mni, parrandalar **3,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to‘liq tarkibi quydagi ko‘rsatkichlarda o‘z aksini topgan:



Ulgurji savdo tovar aylanmasi

Asosiy tarkib, *foizda*

Yirik korxonalar **Mikrofirma va kichik korxonalar**

Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 689,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,7 %** ga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **364,5** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati **127,6** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **2 324,8** mlrd. so‘mni tashkil etib **102,9** % ga o‘sdi.

O‘sish (o‘zgarish) **sur‘atlari,** *foizda*



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Umumiy ovqatlanish sohasining tovar aylanmasi 245,1 mlrd. so‘mni tashkil etib 2022- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 103,2 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,2 foiz bo‘lib, 2 536,3 ming so‘mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8 874,4 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 104,5 foizga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 452,8 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 106,8 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 228,6 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 92,8 %), jismoniy shaxslarning tovar aylanmasi 6 192,9 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 109,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 212,9 mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati 102,1 %) tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, *(mlrd. so‘m)*



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushiga ega bo‘lgan Qarshi va (Viloyat bo‘yicha jami tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 25,5 %), Shahrisabz (9,0 %) shaharlari, Chiroqchi (7,6%), Koson (7,3 %) va Qamashi tumanlari (6,8 %) chakana savdo tovar aylanmasining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 452,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,1 % ulushiga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 7208,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 81,2 foizga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi,
(jamiga nisbatan foiz hisobida)



Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	yirik korxonalar (mlrd.so'm)	*o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da*	*kichik tadbirkorlik (mlrd.so'm)*	*o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da*
Qashqadaryo viloyati	**452,8**	**106,8**	**2 228,6**	**92,8**
shaharlar:				
Qarshi	256,4	97,9	387,9	55,1
Shahrisabz	13,5	71,9	273,8	102,6
tumanlar:	-			
G'uzor	5,6	104,5	106,5	99,7
Dehqonobod	3,0	83,5	88,6	101,5
Qamashi	7,0	91,0	145,6	126,1
Qarshi	6,9	57,8	113,1	93,4
Koson	40,3	4,3 m.	204,1	115,4
Kitob	7,4	36,8	129,3	100,7
Mirishkor	2,8	90,0	50,1	82,4
Muborak	25,9	125,9	88,5	115,6
Nishon	3,4	82,7	80,4	102,1
Kasbi	13,9	3,0 m.	133,5	113,1
Ko'kdala	8,4	-	90,3	159,6
Chiroqchi	24,7	87,3	132,3	119,1
Shahrisabz	27,4	157,9	63,3	107,9
Yakkabog'	6,3	87,4	141,1	106,1

2023- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining o'sish sur'ati bo'yicha Ko'kdala (159,6 %), Qamashi (126,1 %) Muborak (115,6 %), Koson (115,4 %) va Kasbi tumanlarida (113,1 %) yuqori darajada bo'ldi. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 5,1 foizni tashkil etib, yirik korxonalarning eng katta ulushi Qarshi shahrida (11,3 %), Muborak (11,2 %) va Shahrisabz (7,7 %) tumanlarida kuzatildi.